

HAKIM TERMIZIY NAZDIDA MA'RIFAT TUSHUNCHASINING YORITILISHI

Mutalova Shoirra Utkurovna

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti 1-bosqich magistranti*

Annatatsiya. Ushbu maqola IX asrda yashab ijod qilgan buyuk islom olimi va mutafakkiri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy hayoti, ilmiy merosi va tasavvufiy-ma'rifiy qarashlarini tahlil qiladi. Muallif Termiziyning nafaqat mashhur muhaddis va hanafiya huquqi bilimdoni, balki tasavvuf va ma'rifat falsafasining asoschilaridan biri sifatidagi o'rnini yoritadi. Maqolada Termiziyning amaliy hayoti, ilmiy safarlari va mashhur sufiylar bilan aloqalari, shuningdek, uning ma'rifat nazariyasi batafsil ko'rib chiqilgan. Xususan, maqolada Termiziy ma'rifatning uch asosiy unsuri – haqiqat, adolat va rostgo'ylikni insonning amallari, qalbi va aqli bilan bog'liq jihatlari orqali izohlaydi. Muallif Termiziy nazarida rostgo'ylikning ma'rifat va axloqiy hayotdagi markaziy ahamiyatini, haq va adolat esa uning tashqi amaliy tatbiqi sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Maqola shuningdek Termiziyning fitriy aql va imon aqli tafovutini, haqiqiy ma'rifatni imon va basira orqali idrok qilish zarurligini yoritadi. Xulosa qilib aytganda, maqola Hakim Termiziy ilmiy-merosini zamonaviy ma'naviy va axloqiy kontekstda baholashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Hakim Termiziy, ma'rifat, tasavvuf, haqiqat, adolat, rostgo'ylik

Аннотация. Данная статья посвящена жизни и научному наследию великого исламского мыслителя IX века Абу Абдуллаха Мухаммада ибн Али Хакима Термизи, а также его суфийском взглядам. Автор подчеркивает, что Термизи был не только выдающимся хадисоведом и знатоком ханафийской юриспруденции, но и одним из основателей философии и суфийского знания. В статье рассматриваются его научные путешествия, контакты с известными суфиями, а также концепция марфата, раскрытая через три основных принципа: истина, справедливость и правдивость. Термизи показывает, что правдивость является центральным элементом марифата и духовной жизни, истина и справедливость – её внешнее проявление. Особое внимание уделяется различию между врожденным разумом и разумом веры, а также пониманию подлинного марфата через иман и басиру. Статья демонстрирует значимость учения Термизи для духовного и нравственного совершенствования человека и его практического применения в жизни.

Ключевые слова: *Хаким Термизий, марифат, суфизм, истина, справедливость, правдивость*

Abstract. *This article is devoted to the life and scholarly legacy of the great 9th-century Islamic thinker Abu Abdullah Muhammad ibn Ali Hakim Termizi, as well as his Sufi and ma'rifah (gnostic) teachings. The author emphasizes that Termizi was not only a renowned hadith scholar and expert in Hanafi jurisprudence, but also one of the founders of Islamic philosophy and Sufi knowledge. The article examines his scholarly journeys, interactions with prominent Sufis, and his concept of ma'rifah, articulated through three fundamental principles: truth, justice, and honesty. Termizi asserts that honesty is the central element of ma'rifah and spiritual life, while truth and justice are its external manifestations. Special attention is given to the distinction between natural intellect and the intellect of faith, as well as understanding true ma'rifah through iman and basira. The article highlights the relevance of Termizi's teachings for spiritual and moral development, emphasizing their practical application in human life.*

Keywords: *Hakim Termizi, ma'rifah, sufism, truth, justice, honesty*

KIRISH

Islom olami tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar orasida Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy alohida o'ringa ega. IX asrda yashab ijod qilgan yirik muhaddis, balki hikmat va tasavvuf falsafasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning boy ilmiy merosi o'z davrida "Hakimlar sultoni" degan yuksak nomga sazovor bo'lishiga sabab bo'lib, bugungi kunda ham ma'naviy-axloqiy poklanish yo'lida bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda. Termiziy nazariyasi asosida haqiqiy ma'rifat – amallarda, qalbdagi va aqlida mujassam bo'lgan haqiqat, adolat va rostgo'ylik orqali namoyon bo'ladi, va bu uchlik inson axloqi, e'tiqodi va hayotining barcha jabhalarida markaziy mezon sifatida xizmat qiladi.

Muhammad ibn Ali Termiziy IX asrning birinchi o'n yilligida mashhur hadis bilimdoni oilasida tug'ildi. Uning oilasi o'z silsilasini arablarning harbiy yurishlari davrida Eronda joylashgan arab qabilalaridan biri bilan bog'laydi. Termiziy yoshligini hadislar va hanafiya huquqini o'rganishga bag'ishladi. U 27 yoshida Makkaga haj amalini ado etish uchun bordi. Yo'l-yo'lakay Kufa, Bag'dod va Basrada bo'lib, hadis yig'ish bilan shug'ullandi. Termiziy o'z sayohati davomida qator tasavvufiy risolalar bilan birga, suriyalik sufiy Ahmad bin Asim Antokiy asarlari bilan ham tanishdi. U bir necha iroqlik sufiylar, xususan, Abu Turob Naxshabiy, Yahyo Jalla va Ahmad bin Dazruyi rahbarligi ostida ilm oldi. Nihoyat, Termizga qaytgandan so'ng u o'zida to'la ma'naviy-ruhiy qayta tug'ilishni kechirdi, bu esa uni zohidlik hayot tarzini qabul qilishga va o'zini zuhdga to'la bag'ishlashga undadi [

3:135]. Buyuk alloma Hakim Termiziy o'z zamonasining diniy ilmlaridan ham, dunyoviy ilmlaridan ham har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan. Uning mukammal ilmi va beqiyos salohiyatiga ko'pchilik allomalar yuksak baho berganlar. Jumladan, buyuk mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy "Nafahot ul-uns", Alisher Navoiy "Nasoim ul-muhabbat" asarida uni eng ulug' shayxlar qatorida zikr qilganlar va mutasavviflarning ikkinchi butuniga kiritganlar [2:7].

Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy tasavvufda ma'rifat tushunchasiga alohida to'xtalgan va uning asl ma'nosini ochib bergan olimlarda hisoblanadi. Uning ma'rifatga doir qarashlari Abdul Muhsin Husayniyning "Hakim Termiziy nazdida ma'rifat" asarida keng bayon etilgan. "Bu din uch asosga qurilgan bo'lib, haqiqat, adolat va rostgo'ylik dir. Haqiqat a'zolar (amallar) uchun, adolat qalblar uchun, rostgo'ylik esa aql uchun. Qachonki bandaning amallari tarozuga qo'yilsa, ezgu ishlar haqiqat tarozisiga, yomonliklar adolat tarozisiga, rostgo'ylik esa tarozuning tiliga tushadi. Shunda aniqlanadi ezgulik yomonlikdan ustunmi yoki yo'qmi. Kimda bu uch hislatning mujassam bo'lishi Allohning bandalaridan rozi bo'lishining belgisidir. Agar amaldan haqiqat ketgan bo'lsa, uning o'rnini botil egallaydi. Agar undan adolat yo'qolsa, zolimlik ustun keladi. Agar rostgo'ylik bo'lmasa, uning o'rniga yolg'on keladi. Demak, bu uch narsa haqiqat, adolat va rostgo'ylik ma'rifat askarlaridir. Ularning qarama-qarshi tomonlari esa nafs askarlaridir [1.171].

Rostgo'ylik yaxshilik bilan yomonlik, hidoyat bilan zalolat orasidagi farqni ko'rsatadigan mezondir. Bu haqiqat va yolg'on, to'g'ri va noto'g'rini ajratib beruvchi mezondir. Allohning bandalarga qarshi hujjat sifatida qo'yayotgan asosiy vositasidir. Shunday ekan aynan mana shu uchta asos (haq, adolat, rostgo'ylik) orqali Alloh bandalarni amallari uchun hisobga tortadi ularni o'z amallariga guvoh qiladi, va ularga qarshi dalil keltiradi. Bu uchlik orasida esa eng hal qiluvchi mezon rostgo'ylikdir, chunki u farqlovchi vosita, dalil va isbot mezonidir. Rostgo'ylik hukm chiqarish uchun mezon, haq amalda namoyon bo'ladigan to'g'rilik, insonning a'zolari orqali bajariladi, adolat inson qalbidagi ichki mezon, ya'ni his-tuyg'u va niyatlarning o'lchovi. Demak haq amal (jism), adolat niyat (qalb), rostgo'ylik ong va so'zdir (aql). Rostgo'ylik ma'rifat bosqichlarining so'nggi pog'onasidir. Oldingi ikki bosqich (ya'ni haq va adolat) bo'lib, unga yetib boradi va unda birlashadi. Rostgo'ylik bu ikkisini o'zida mujassam etadi va ularga hukmronlik qiladi. Shuning uchun ham rostgo'ylik barcha ma'rifat unsurlarining tengdoshi va ramzi hisoblanadi. Alloh bandalarni shunday hisob kitob qiladi. Yaxshi amallari uchun haq mezonida mukofotlaydi, yomon amallari uchun esa adolat mezonida jazolaydi. Shu bois mukofot haq tarozisiga, jazo (iqob) esa adalat mezoniga joylashtiriladi. Lekin bu hukmni berishda asosiy dalil bu ma'rifatdir. Va bu ma'rifatning eng asosiy unsuri rostgo'ylikdir. Shuning uchun bu yerda rostgo'ylik ma'rifatning ramzi sifatida qo'yilgan. Xulosa shuki haq va adolat Allohning amallarga

bergan javobidir. Rostgo'ylik bu javoblarning adolatli yoki haqli ekani haqida hujjat sifatida xizmat qiladi. Demak, qiyomat kuni hisobda odamlar o'z bilim va anglash darajasiga ma'rifatga ko'ra javobgar bo'ladilar. Va bu bilim mezonining cho'qqisi rostgo'ylikdir.

Termiziy yuqorida bayon qilgan uch hislat haqiqat, adolat va rostgo'ylikni bandalarning amallari o'rnida ochib beradi. Amallar to'g'ri, to'la va mukammal bo'lishi uchun albatta ularda uch asosiy unsur haq, adolat va rostgo'ylik bo'lishi shart. Agar bir amalda haqiqat bo'lmasa, uni botillik egallaydi. Agar unda adolat yo'q bo'lsa, uni zolimlik egallaydi. Agar unda rostgo'ylik bo'lmasa, uni yolg'on egallaydi [1:173]. Demak, har qanday amal haq, adolat va rostgo'ylikka tayanmasa, u nomukammal bo'ladi. Ularning qaysi biri yetishmasa, amal shuncha darajada kamchilikka ega bo'ladi.

Termiziy mazkur uch unurni endi axloq doirasida ochib beradi. "Faqat amallar emas, insonning axloqi, fazilatlar va ruhiy sifatlari ham ayni shu uch unurni o'zida mujassam etishi kerak. Har bir kishida bu uch narsa jam bo'lsa haq, adolat, rostgo'ylik, u inson go'yo bu fazilatlar bilan tug'ilgandek bo'ladi. Bular inson fitratining ichki fazilatlariga aylanadi. Albatta, bu fazilatlar kishilarda farq qiladi. Qaysi insonda bu fazilatlar kuchliroq bo'lsa, uning axloqi ham shuncha komil bo'ladi, shu bilan birga u shuncha ko'p ma'rifatga ega bo'ladi va uning amallari ham shuncha to'g'ri bo'ladi [1:174]. Termiziyning bu so'zlari quyidagilarni asoslaydi, ma'rifat nazariy emas, balki amaliy va axloqiy asosga ega. Haq, adolat, va rostgo'ylik inson hayotining barcha jabhalarida (aqliy, amaliy, axloqiy) mavjud bo'lishi kerak. Bu uchlik yo'q bo'lsa, insonning amali ham, axloqi ham, ma'rifati ham chala, zaif yoki buzilgan bo'ladi. Termiziy haq, adolat va rostgo'ylikni nafaqat amallarning va axloqning, balki to'g'ri e'tiqodning ham poydevori sifatida tasvirlaydi. "Yuqorida aytib o'tilgan uch unsur (haq, adolat, rostgo'ylik) bir butun holda ma'rifatning (bilimning) askarlaridir. Ularning qarama-qarshilari esa nafs askarlaridir. Agar bu uch narsa haq, adolat, rostgo'ylik to'liq mujassam bo'lsa, haqiqiy ma'rifat faqat shunda xosil bo'ladi. Shuningdek, hidoyat, hushyorlik, va to'g'ri fikr faqat bu uch unsur jam bo'lgan holatda yuzaga keladi. E'tiqod bu unsurlarning birortasidan mahrum bo'lsa, shunchalik haq yo'ldan og'adi va havoga, yo'ldan ozishga yuz tutadi. Demak, bu uch narsa haq, adolat va rostgo'ylik to'g'ri e'tiqodning asosiy unsurlaridir. Aynan shu e'tiqoddan amal tug'iladi, axloq yuzaga keladi va u insonning fitratiga, hamda butun borliqdagi ilohiy hikmatga mos keladi. Shuningdek, bu e'tiqod qiyomat kunidagi hisob kitob mezonlariga ham mos keladi. Ya'ni, har bir amal ana shu uch narsa asosida baholanadi. [1:175]

Termiziy bu nazariyasi orqali haqiqiy bilim bu faqat aqliy tushuncha emas, balki, fitratga mos, axloqqa singgan, amallarda aks etgan, e'tiqodda mustahkam bo'lgan mukammal hayotiy tizim ekanini ta'kidlagan. Termiziy nazarida ma'rifat umumiy, keng ma'nodagi bilim emas balki xos ma'noga ega. Bu ma'noni tushunish oson bo'lishi uchun u aqlni ikki

turga ajratadi. Fitriy aql va imon aqli. Fitriy aql bu barcha odamzodga xos. Ular orasidagi farq esa tana tuzilishi va tabiiy imkoniyatlarga bog‘liq. Imon aqli esa faqat mo‘minlar ya’ni tavhid egalariga xosdir. Fitriy aqlning manbai hissiy idrok va a’zoldir. Imon aqli esa qalbdagi basira ichki nur, ruhiy ko‘rish va imon bilan idrok qilishga asoslanadi. Shuning uchun Termiziy uchun ma’rifat deganda aynan ikkinchi turdagi, imon bilan bog‘liq idrok tushuniladi. Ya’ni, birinchi turdagi fitriy aql hamma odamzodda mavjud ma’rifat doirasiga kirmaydi. Shu sababli falsafiy yoki sof aqliy bilimlar agar ular ilohiy maqsadga xizmat qilmasa ma’rifat hisoblanmaydi. Termiziy o‘z doirasida faqat imon va basira orqali tushunilgan narsalarni haqiqiy ma’rifat deb hisoblaydi. [1:175]

Xulosa qilib aytganda rostlik Termiziy nazarida haqiqiy va ichki ma’rifatning markazi, asosi va mazmuni hisoblanadi. Haq va adolat bu markaziy haqiqatni tashqi dunyoga tatbiq qilish ya’ni amaliy hayotda uni tasdiqlash haq, axloqiy mezonlar orqali uni barqarorlashtirish adolat vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdul Muhsin Husayniy. Hakim Termiziy nazdida ma’rifat. – Qohira: Darul Kirabul Arobiy, 2011. – B. 171.
2. Hakim Termiziy. Ma’rifatul asror / Tarjimon Muhammad Tursunov. – Toshkent: Movarounnahr, 2018. – B. 7.
3. Hakim Termiziy. Xatmul avliyo. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1925. – 592 b.
4. Knish A.D. Musulmon tasavvufi / Tarjimon Qodirqul Ro‘zmatzoda. – Toshkent: Fan Ziyasi, 2022. – B. 135.